

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA: O'QITISH METODIKASI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Ayakulov U.A.,

Guliston davlat pedagogika instituti
stajyor-o'qituvchisi ayakulovulugbek@gmail

Annotatsiya: uzluksiz ta'lim tizimida ishlaydigan har bir mutaxassis kasbiy pedagogik ma'lumotga ega blish bilan cheklanmasdan, aynan shu yoshdagi o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishga maxsus tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi, metodik va zamonaviy yondashuvlarga alohida e'tibor qaratgan blishi maqsadga muvofiqdir.

Kalit szlar: ta'lim tizimi, o'qituvchi, zamonaviy, kompetentli, kasbiy, yondashuv, faoliyat, kompetensiya, kompetentli pedagog.

Аннотация: каждый специалист, работающий в системе непрерывного образования, должен не только обладать профессиональными педагогическими знаниями, но и иметь специальную подготовку по обучению и обучению учащихся этого возраста, особое внимание к методическим и современным подходам целесообразно сосредоточить.

Ключевые слова: система образования, педагог, современный, компетентный, профессиональный, подход, деятельность, компетентность, компетентный педагог.

Abstract: each specialist working in the continuing education system should not only have professional pedagogical knowledge, but also have special training for teaching and training students of this age, special attention to methodical and modern approaches it is appropriate to have focused.

Key words: educational system, teacher, modern, competent, professional, approach, activity, competence, competent pedagogy.

Uzluksiz ta'lim tizimida fanlarni o'qitishning umumta'lim maqsadlaridan tashqari, uning o'ziga xos maqsadlaridan biri ta'lim oluvchilarning tafakkurni rivojlantirishga erishishdan iborat. Chunki, u ta'lim oluvchilarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

“Psixologiya” kursidan ma'lumki, ta'lim oluvchilarning o'smirlik davri (12 yoshdan – 15 yoshgacha bo'lgan davr) anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Chunki, bu davrda biologik o'sish tezlashadi. Shu sababli ham mazkur davr “o'tish davri” ham deb yuritiladi va ushbu jarayonda zamonaviy o'smir ruhiyatida quyidagi holatlar kuzatiladi: intellektual rivojlanishini ta'minlash, ya'ni tafakkur qobiliyatini rivojlantirish talab yetiladi. Chunki, bu davrda o'smirlarda bilishga bo'lgan qiziqish oshadi;

o'z-o'zini anglash, baholash va tarbiyalashga bo'lgan yehtiyoj shakllanadi. Bu davrda, u o'zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi;

Uzluksiz ta'lim tizimining 5-9 sinf ta'lim oluvchilari o'smir yoshida bo'lib, bu davrda o'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil yetishda buni hisobga olishi muhim hisoblanadi. Chunki, zamonaviy ta'lim tizimida tafakkurning aniq maqsadga qaratilgan rivojlanishsiz ta'lim oluvchilar yetarli darajada bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'la olmaydi. Bunga erishish, bugungi ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, uni amalga oshirishda o'qituvchining roli muhimdir.

Hozirgi kun ta'lim tizimini modernizasiya qilish davr talabi bo'lib turgan bir sharoitda, ilmiy axborot hajmini kundan-kunga jadal su'ratlar bilan oshib borishi, ayniqsa, umumta'lim maktabida ta'limning chegaralanganligi, unda o'qitilayotgan fanlar mazmunini qisqartirish imkoniyatlarining kamligi mazkur jarayonni amalga oshirishni murakkablashtirmoqda.

Ilmiy-didaktik, ilmiy-metodik izlanishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish va ko'zlangan maqsadlarga yerishishning samarali yo'llaridan biri ta'lim tizimiga zamonaviy innovasion-pedagogik va modulli texnologiyalarni joriy yetishdan iborat.

Davlat ta'lim standartlari (DTS), Malaka talablari (MT)lari darajasida ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni egallanishida ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo'llaniladigan uchta toifagi pedagogik usullar ya'ni, birinchi toifadagi usullar "An'anaviy usullar" deb atalib, Ta'lim oluvchilarga bilimlarni "Yetkazib berish" tamoyiliga asoslanadigan, ikkinchi toifadagi usullar "Noan'anaviy" yoki "Interaktiv" usullar deb nomlanib, ta'lim oluvchilarni bilim egallashlarida "faollashtirish" tamoyiliga suyanadigan va uchinchi toifadagi usullar "Ilg'or yoki Zamonaviy usullar" deyilib, ta'lim – tarbiya jarayonini jadallashtirish va samaradorligini oshirish tamoyilidan kelib chiqadigan usullar haqida barcha fan o'qituvchilarining yetarli darajada tushunchalarga ega bo'lishi va pedagogik faoliyati jarayonida ulardan to'g'ri va o'rinli foydalana olishlari talab etiladi. Chunki: ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashda; anglagan holda bilim olishga va mustaqil o'z bilimlarini oshirib borishga o'rgatishda; fanga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda; mantiqiy fikrlashga o'rgatishda; ta'lim samaradorligini oshirish va takomillashtirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari, uning usullarisiz ta'lim maqsadlariga erishib bo'lmaydi.

Hozirga kunda mamlakatimiz ta'lim tizimiga innovasion-pedagogik, modulli texnologiyalar va zamonaviy ta'lim vositalarini ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish davr talabi bo'lib qolmoqda. Bu o'z navbatida, ta'lim jarayonini oldindan loyihalashtirishni amalga oshira oladigan, texnologik bilimlar tizimiga ega bo'lgan zamonaviy o'qituvchilarga bo'lgan talabni oshiradi.

Tan olish kerakki, keyingi yillarda inovasion-pedagogik va modulli texnologiyalar bo'yicha mamlakatimiz olimlari tomonidan samarali ishlar amalga oshirildi. Lekin, chop etilgan ko'plab ilmiy-metodik adabiyotlarda munozoraga sababchi bo'layotgan kamchiliklarga yo'l qo'yib qilinmoqda. Jumladan, pedagogik amaliyotda keng qo'llaniladigan "metodika" va "texnologiya" tushunchalari mohiyatini tavsiflashda ko'plab adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular ma'lum ma'noda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga to'sqinlik qilmoqda. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda, mazkur masala yuzasidan ayrim mulohozalarni ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

"Metodika" o'zaro ta'sir yetishning turli shakllarini o'rganish asosida mazkur fanni o'qitish va o'rganish yo'llarini ishlab chiqadi va ta'lim oluvchilarga ta'sir yetishning aniq tizimini o'qituvchilarga taklif yetadi. Bu tizimlar DTS va MT, o'quv fani dasturi va darsliklarda ochib beriluvchi ta'lim mazmunida o'z aksini topadi hamda ta'lim metod, shakl va vositalari orqali amalga oshadi. Har bir fan metodikasi didaktika bilan mustahkam bog'langan va uning umumiy qoidalariga tayanadi. Ta'lim-tarbiya tamoyillariga asoslanib yesa, metodika o'quv fanining maqsadi, uning ta'lim oluvchi shaxsini rivojlanishidagi ahamiyatini ochib beradi.

Umumiy ma'noda "metodika" tushunchasi ma'lum bir ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan metod va usullar tizimidir. Yoki bu tushuncha, ta'limiy maqsadga

erishishda qo'llaniladigan pedagogik usul yoki chora va tadbirlarni qo'llash yo'riqnomasi sifatida tushuniladi

Mamlakatimizda ta'limni rivojlantirishning maqsadli dasturiga muvofiq ta'lim tizimi modernizatsiyalash, kadrlarni qayta tayyorlash, o'quv jarayonini axborotlashtirish, axborot makonlarini yaratish kabilarni amalga oshirish zarur. Sanab tilgan talablar yangi milliy ta'lim tizimining shakllanishiga, inson kapitalining rivojlanishiga, mamlakatimiz iqtisodiyotining mustahkamlanishiga olib keladi.

Pedagog kadrlarning bilimlarini, kompetensiyalarining doimiy yangilash va butun ta'lim tizimini takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish lozim. Ta'limjarayoniga innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi ta'lim oluvchilarni dolzarb bilimlar bilan ta'minlash uchun kasbiy faoliyatiga yangi yondashuvlarni olib kirish va ularni o'zlashtirishi darajasining ortishiga imkon beradi.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, kompetentli yondashuv – bu hozirgi zamon kasbiy ta'lim tizimini mehnat bozorining talab va ehtiyojlari bilan bir qatarga qyishga intilishdir. Pedagog-xodimlar uchun yeng muhim vazifa bo'lib, kompetensiyalarni amaliy jihatdan egallash zarurati sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanov A.A., Uroкова Sh.B. (2021). Sifrovizatsiya obrazovaniya na sovremennom etape razvitiya informatizirovannogo obshchestva. Scientific progress, 2 (1), 300-308.

2. Nurumbekova Y. Tarbiyachi kasb faoliyatida innovatsion texnologiyalar. – Guliston: Ziyo, 2012. –B. 22.

3. Raxmanova, M. K. (2019). Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari. Xalq ta'limi.